



International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.

MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA DAROMADLAR VA XARAJATLAR HISOBI BO‘YICHA NOTO‘G‘RI AKS ETTIRISH VA SOXTALASHTIRISH HOLATLARINI ANIQLASH USULLARI

Nurmamatov Zafar Mamadiyor o‘g‘li
Navoiy viloyati ichki ishlar boshqarmasi
Moliya ta‘minot xizmati katta muhandis-iqtisodchi

G‘oyibnazarov Muxammad Xamidbekovich
Ma‘mun universiteti
“Buxgalteriya hisobi” kafedrası o‘qituvchisi
goyibnazarov_muxammad@mamunedu.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada mikromoliya tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar hisobi bo‘yicha noto‘g‘ri aks ettirish hamda soxtalashtirish holatlarini aniqlashning uslubiy asoslari tadqiq etildi. Tadqiqotda mikromoliya bozorining institutsional xususiyatlari, ichki nazorat va ichki audit talablari, auditning huquqiy asoslari, risklar tasnifi, nohalol amaliyotlar, noqonuniy faoliyatda uchraydigan hujjatli izlar hamda hisob tizimining zaif nuqtalari bo‘yicha ilmiy manbalar umumlashtirildi. Maqolada noto‘g‘ri aks ettirish va soxtalashtirishni aniqlash hujjatli solishtirish, analitik indikatorlar, raqamli izlar tahlili, shikoyatlar monitoringi va riskga yo‘naltirilgan tekshiruvlar kombinatsiyasi asosida qurilishi lozimligi asoslandi. Shuningdek, uchta jadval asosida asosiy buzilish sxemalari, tekshiruv protseduralari va ogohlantiruvchi indikatorlar tizimi ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: mikromoliya tashkiloti, daromadlar hisobi, xarajatlar hisobi, noto‘g‘ri aks ettirish, soxtalashtirish, ichki nazorat, ichki audit, audit protseduralari, riskga yo‘naltirilgan tahlil, hujjatli tekshiruv.

Kirish

Mikromoliya tashkilotlari faoliyatida daromadlar va xarajatlar bo‘yicha hisob ma‘lumotlari nafaqat moliyaviy hisobot tuzish, balki risklarni boshqarish, regulyatorga axborot taqdim etish, ichki nazoratni yuritish va auditorlik tekshiruvini tashkil etish uchun ham markaziy ahamiyatga ega. Ushbu sektorda operatsiyalar hajmining ko‘pligi, bitimlar sonining maydaligi, shartnomalar

bo'yicha foiz va to'lovlarning turli shakllarda shakllanishi, muammoli portfel bilan ishlash va filiallarga tayangan faoliyat modeli hisob ma'lumotlarini noto'g'ri aks ettirish yoki qasddan soxtalashtirish xavfini kuchaytiradi.

O'zbekiston Respublikasida nobank kredit tashkilotlari, shu jumladan mikromoliya tashkilotlari uchun buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash, aktivlar sifati va zaxiralarni shakllantirish, iste'molchilar bilan munosabatlar, axborot xavfsizligi va tartibga solish bo'yicha aniq talablar belgilangan. Demak, daromadlar va xarajatlar hisobi bo'yicha noto'g'ri aks ettirish holatlari oddiy texnik xato emas, balki moliyaviy hisobot sifati, iste'molchilar huquqlari va nazorat organlari uchun taqdim etilayotgan axborotning ishonchliligiga ta'sir qiluvchi omildir.

Mikromoliya sektorida noto'g'ri aks ettirish ikki xil tabiatga ega bo'lishi mumkin. Birinchisi, metodik yoki texnik xatolar, masalan foizlarni noto'g'ri davrda tan olish, xarajatlarni noto'g'ri guruhlash, zaxiralarni yetarli darajada shakllantirmaslik, davrlarni aralashtirish. Ikkinchisi, qasddan soxtalashtirish, masalan daromadlarni sun'iy ko'paytirish, xarajatlarni yashirish, qalbaki shartnomalar, kassaga tushgan pullarni rasmiylashtirmaslik, vositachilik yoki xizmat haqlarini asossiz hisoblash, muammoli aktivlarni yashirish. Shu sababli aniqlash usullari ham faqat buxgalteriya qayta hisobi bilan cheklanmay, hujjatli, analitik, raqamli va xulq-atvor indikatorlarini birlashtirishi zarur.

Daromadlar va xarajatlar bo'yicha noto'g'ri aks ettirish holatlari mikromoliya tashkilotlarida bir necha tipik shakllarda uchraydi. Ayrim buzilishlar metodik xatolardan, boshqalari esa qasddan soxtalashtirishdan kelib chiqadi. Shu sababli aniqlash jarayonida birinchi navbatda ehtimoliy sxemalarni tizimlashtirish talab etiladi.

1-jadval Mikromoliya tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar hisobi bo'yicha asosiy buzilish holatlari

Hisob obyekt	Buzilish turi	Tipik tuzulma	Ehtimoliy izlar
Foizli daromadlar	Noto'g'ri aks ettirish	Foizlarni noto'g'ri davrga yozish, muddatidan oldin e'tirof etish	Foizlar dinamikasi bilan portfel dinamikasi o'rtasida tafovut
Xizmat va vositachilik daromadlari	Soxtalashtirish	Asossiz xizmat haqi hisoblash, bir xizmatni ikki marta yozish	Mijoz shikoyatlari, bir xil shartnoma bo'yicha takroriy yozuvlar
Jarima va penya	Soxtalashtirish yoki metodik xato	Shartnomada ko'zda tutilmagan jarimalarni hisoblash, kechikish davrini sun'iy cho'zish	Penya daromadi keskin o'sishi, shikoyatlar sonining ko'payishi
Hisobdan chiqarilgan aktivlar qaytimi	Soxtalashtirish	Ilgari mavjud bo'lmagan yoki noto'g'ri tasniflangan summani "qaytgan" deb ko'rsatish	Qaytgan summa bo'yicha birlamchi asos yetishmasligi
Naqd tushumlar	Soxtalashtirish	Kassaga tushgan pulni to'liq rasmiylashtirmaslik yoki vaqtincha yashirish	Kassa hujjatlari bilan tizim yozuvlari orasida tafovut
Operatsion xarajatlar	Noto'g'ri aks ettirish	Davrlar bo'yicha noto'g'ri taqsimlash, xarajatni noto'g'ri guruhga yozish	Oylik yakunlarda xarajatlarning keskin sakrashi

Konsalting, reklama, IT xarajatlari	Soxtalashtirish	Asossiz xizmatlar, bog‘liq tomonlar orqali sun‘iy xarajat shakllantirish	Bir xil kontragentlar, umumiy tavsifli aktlar, bozor narxidan og‘ish
Undirish xarajatlari	Noto‘g‘ri aks ettirish yoki yashirish	Muammoli portfel bilan ishlash xarajatlarini oddiy ma‘muriy xarajatlarga qo‘shish	Muammoli portfel katta bo‘lsa-da, undirish xarajatlari juda past ko‘rinishi

1-jadvaldan ko‘rinadiki, buzilishlar faqat daromadni oshirish yoki xarajatni kamaytirish ko‘rinishida bo‘lmaydi. Ayrim holatlarda daromadni noto‘g‘ri davrga o‘tkazish, xarajatni noto‘g‘ri guruhlash yoki muammoli portfelga doir sarf-xarajatlarni yashirish orqali ham moliyaviy natija sun‘iy ravishda yaxshiroq ko‘rinishi mumkin. Ayniqsa, xizmat haqlari, penya, qayta tiklangan aktivlar va naqd tushumlar yuqori xavfli zonalar sifatida ajralib turadi.

Buzilish sxemalari ma‘lum bo‘lgach, ularni aniqlashda qaysi dalillar manbasi va qaysi protsedura qo‘llanilishi lozimligi masalasi paydo bo‘ladi. Shu sababli tekshiruv matritsasi ishlab chiqildi.

2-jadval Daromadlar va xarajatlar bo‘yicha buzilishlarni aniqlash uchun tekshiruv amallari

Tekshiruv obyekti	Asosiy dalil manbalari	Tekshiruv amallari	Kutiladigan signal
Foiz hisoblash	Shartnoma, kredit jadvali, tizim yozuvlari, hisob registri	Qayta hisoblash, davrlar bo‘yicha solishtirish	Hisoblangan foiz bilan grafik orasida farq
Xizmat haqlari	Tariflar, shartnoma ilovalari, kassaviy hujjatlar, mijoz murojaatlari	Tarifga muvofiqlik tekshiruvi, tanlab tasdiqlash	Tarifga kirmagan to‘lovlar mavjudligi
Jarima va penya	Kechikish tarixlari, SMS/xabarnoma loglari, shartnoma, registrlar	Kechikish davrini qayta tiklash, huquqiy asosni tekshirish	Penya summasi kechikish muddatiga mos kelmasligi
Naqd tushumlar	Kassa orderlari, inkassatsiya hujjatlari, bank ko‘chirmalari, tizim	Kassa va tizim yozuvlarini kunlik kesimda solishtirish	Kassa va registr o‘rtasida vaqt tafovuti
Qayta tiklangan aktivlar	Ilgari hisobdan chiqarish dalolatnomasi, undirish hujjatlari, tushum hujjatlari	Zanjirli hujjatli tasdiqlash	Asl qarzdorlik bilan qaytgan summa bog‘lanmasligi
Reklama va konsalting xarajatlari	Shartnomalar, aktlar, to‘lov topshiriqlari, bozor narxlari	Mazmuniy ekspertiza, kontragent tekshiruvi	Umumiy tavsifli xizmat aktlari, bog‘liq tomonlar
IT xarajatlari	Litsenziya shartnomalari, loglar, xizmat aktlari, to‘lovlar	Foydalanish hajmi bilan xarajatni taqqoslash	Tizim foydalanishi past, xarajat yuqori

Muammoli portfel xarajatlari	Undirish jurnali, sud hujjatlari, xizmat safari va aloqa xarajatlari	Portfel sifati bilan xarajat nisbatini tekshirish	Muammoli portfel katta, undirish xarajati g'ayrioddiy past yoki yuqori
------------------------------	--	---	--

2-jadvaldagi protseduralar shuni ko'rsatadiki, samarali aniqlash usuli bitta dalil manbasiga tayangan holda qurilmaydi. Masalan, penya daromadini tekshirish uchun faqat buxgalteriya yozuvi yetarli emas; kechikish tarixi, mijozga yuborilgan xabarnomalar va shartnoma shartlari birgalikda ko'rilishi kerak. Xuddi shuningdek, reklama yoki konsalting xarajatlari bo'yicha to'lov hujjati mavjud bo'lsa ham, xizmatning real mazmuni va iqtisodiy asosi alohida tahlil qilinishi zarur.

Tekshiruvning uchinchi bosqichi ogohlantiruvchi indikatorlarni aniqlashdan iborat. Chunki amaliyotda barcha yozuvlarni to'liq tekshirish qimmat va vaqt talab qiladigan jarayon hisoblanadi. Shu bois og'ishlarni erta ko'rsatuvchi indikatorlar tizimi muhim.

3-jadval Daromadlar va xarajatlarni bo'yicha noto'g'ri aks ettirish va soxtalashtirishni erta aniqlash tartibi

Indikator	Hisoblash yoki kuzatish usuli	Ehtimoliy talqin
Foizsiz daromadlar ulushining keskin oshishi	Foizsiz daromad / Jami daromad dinamikasi	Xizmat haqi, penya yoki boshqa tushumlar sun'iy oshirilgan bo'lishi mumkin
Penya daromadining muammoli portfelga nisbati	Penya daromadi / Muddati o'tgan portfel	Nomutanosib yuqorilik asossiz penya hisoblash ehtimolini bildiradi
Qayta tiklangan aktivlar ulushining g'ayrioddiy o'sishi	Qaytgan summalar / Jami foizsiz daromad	"Qaytgan" deb ko'rsatilgan sun'iy tushum bo'lishi mumkin
Oylik yakunda xarajatlarning to'planib qolishi	Oy oxirgi kunlarida yozilgan xarajatlarni ulushi	Davr natijasini boshqarish maqsadida xarajatlarni kechiktirib tan olish ehtimoli
Bir kontragentga to'plangan xizmat xarajatlari	Yirik kontragent ulushi	Bog'liq tomonlar yoki sun'iy xarajat shakllantirish xavfi
Filiallar kesimida bir shartnomaga to'g'ri keladigan xarajat farqi	Filial xarajati / Faol shartnomalar soni	Alohida filialda noto'g'ri tasnif yoki samarasiz jarayon bo'lishi mumkin
Kassa va tizim yozuvlari o'rtasidagi vaqt tafovuti	Kunlik va soatlik kesimda solishtirish	Naqd tushumni vaqtincha yashirish yoki kechiktirib rasmiylashtirish xavfi
Mijoz shikoyatlari bilan daromad moddalarini kesishmasi	Shikoyatlar mavzusi va daromad turlari bo'yicha xarita	Muammo aynan qaysi to'lov turida kuchli ekanini ko'rsatadi
Ish kunidan tashqari tahrirlar ulushi	Tizim loglari asosida	Sun'iy tuzatishlar, orqaga sana qo'yish yoki yashirin o'zgartirish ehtimoli

3-jadvaldagi indikatorlar yordamida tekshiruvlar yuqori xavfli nuqtalarga yo'naltiriladi. Masalan, foizsiz daromadlar ulushi keskin oshgan bo'lsa, xizmat haqlari va penyalar bo'yicha yozuvlar chuqurroq tekshirilishi kerak. Agar kassa va tizim o'rtasida muntazam vaqt tafovuti kuzatilsa, naqd tushumlar bo'yicha qalbakilashtirish ehtimoli oshadi. Demak, analitik indikatorlar hujjatli tekshiruvdan oldingi "saralash filtri" sifatida katta ahamiyatga ega.

Mikromoliya tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar bo'yicha buzilishlarni aniqlash masalasi oddiy audit tekshiruvi doirasidan kengroq. Chunki bu sektorda noto'g'ri aks ettirish ba'zan xato shaklida, ba'zan esa daromadni sun'iy ravishda oshirish yoki xarajatni yashirishga qaratilgan qasddan harakat shaklida namoyon bo'ladi. Shu sababli tekshiruvchi uchun asosiy vazifa "xato bormi?" degan savol bilan cheklanmaydi; "xato qanday paydo bo'lgan?", "u metodik noaniqlik oqibatimi yoki qasddan harakatmi?" degan savollar ham markazga chiqadi.

Noto'g'ri aks ettirish va soxtalashtirish ko'pincha o'zini alohida bir yozuvda emas, turli axborot manbalari o'rtasidagi nomuvofiqlikda namoyon qiladi. Masalan, buxgalteriya registrida daromad to'g'ri ko'rsatilgandek tuyulishi mumkin, biroq mijoz shikoyatlari, xabarnoma loglari, tariflar va shartnomalar bilan solishtirilganda asossiz to'lovlar fosh bo'ladi. Shu bois ko'p manbali tekshiruv mikromoliya tashkilotlari uchun ayniqsa zarur.

Operatsion bosim, resurs bazasi cheklanganligi, muammoli portfel va filiallar tarmog'i ham soxtalashtirish xavfini kuchaytiruvchi fon omillari sifatida ko'rildi. Demak, aniqlash tizimi nafaqat mavjud buzilishni fosh etishi, balki qaysi sharoitlarda bunday buzilish takrorlanishi ehtimoli yuqori ekanini ham ko'rsatishi kerak. Shu nuqtai nazardan, riskga yo'naltirilgan indikatorlar tizimi va raqamli loglar monitoringi an'anaviy hujjatli tekshiruvni to'ldiruvchi kuchli vosita hisoblanadi.

Mikromoliya tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar hisobi bo'yicha noto'g'ri aks ettirish va soxtalashtirish holatlarini aniqlash masalasi moliyaviy hisobotni tekshirish bilan cheklanmaydi. U hisob yozuvlari, birlamchi hujjatlar, operatsion jarayonlar, mijozlar bilan aloqalar, raqamli tizimlar va nazorat mexanizmlarini bir butun tizim sifatida ko'rishni talab etadi. Tadqiqot davomida shunga amin bo'ldikki, mikromoliya tashkilotlari faoliyatining murakkabligi, ko'p sonli mayda operatsiyalar, muammoli qarzdorlik bilan ishlash va qo'shimcha to'lovlar tizimi daromad hamda xarajatlar hisobida buzilishlar paydo bo'lishi uchun qulay fonni shakllantiradi.

Noto'g'ri aks ettirish va soxtalashtirish holatlari ko'proq uchta darajada namoyon bo'ladi. Birinchi daraja - metodik xatolar, ya'ni daromad va xarajatlarni noto'g'ri davrga yozish, moddalarning noto'g'ri tasnifi, zaxiralarni yetarlicha shakllantirmaslik. Ikkinchi daraja - operatsion buzilishlar, ya'ni naqd tushumlar, xizmat haqlari, penya va undirish xarajatlari bo'yicha tartib-intizomning buzilishi. Uchinchi daraja esa qasddan soxtalashtirish bo'lib, bunda qalbaki shartnomalar, yashirilgan tushumlar, asossiz xarajatlar va bog'liq tomonlar orqali sun'iy operatsiyalar shakllantirilishi mumkin.

Tadqiqotning asosiy xulosalaridan biri shuki, bunday holatlarni aniqlashda bitta usulga tayanish yetarli emas. Faqat audit tekshiruvi, faqat ichki nazorat yoki faqat moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili alohida holda to'liq tasavvur bermaydi. Eng maqbul yondashuv hujjatli rekonstruksiya, riskga yo'naltirilgan tanlab tekshirish, analitik indikatorlar, raqamli loglar monitoringi va mijoz shikoyatlari tahlilini birlashtirgan kombinatsiyalashgan model hisoblanadi.

Daromadlar bo'yicha buzilishlar ko'pincha foizsiz tushumlar blokida ko'proq kuzatiladi. Ayniqsa, xizmat va vositachilik haqlari, jarima va penya, qayta tiklangan aktivlar bo'yicha tushumlar iqtisodiy mazmuni murakkab bo'lgani sababli tekshiruvsiz qoldirilsa, moliyaviy natijaning buzib ko'rsatilishiga sabab bo'lishi mumkin. Xarajatlar tomonida esa reklama, konsalting, IT, undirish va xizmat safarlari bilan bog'liq moddalarda noto'g'ri aks ettirish yoki sun'iy oshirish xavfi yuqori bo'ladi.

Tadqiqotdan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

- 1) mikromoliya tashkilotlarida daromad va xarajatlar bo'yicha yuqori riskli moddalarning rasmiy reyestrini joriy etish zarur. Ushbu reyestrda penya, xizmat haqlari, naqd tushumlar, qayta tiklangan aktivlar, reklama, konsalting, undirish va IT xarajatlari kiritilishi kerak.
- 2) buxgalteriya yozuvlari, shartnomalar, kassaviy hujjatlar, front-ofis ma'lumotlari va tizim loglarini bir-biri bilan bog'laydigan ko'p manbali tekshiruv tartibini ichki nazorat reglamentiga kiritish. Shu yo'l bilan bitta hujjat asosida "to'g'ri" ko'ringan operatsiya boshqa manba bilan tekshiriladi.
- 3) xizmat haqlari, penya va qo'shimcha tushumlar bo'yicha mijoz shikoyatlari monitoringini bevosita ichki audit dasturiga bog'lash lozim. Agar ma'lum bir to'lov turi bo'yicha shikoyatlar ko'paygan bo'lsa, shu daromad moddasini chuqur tekshirish avtomatik tartibda ishga tushirilishi kerak.
- 4) filiallar va bo'limlar kesimida ogohlantiruvchi indikatorlar tizimini joriy etish. Foizsiz daromadlar ulushi, penya daromadining muammoli portfelga nisbati, bir kontragentga to'plangan xarajatlar, kassa va tizim yozuvlari o'rtasidagi vaqt tafovuti kabi indikatorlar bo'yicha ichki "qizil bayroq" mezonlari belgilanishi zarur.
- 5) audit va ichki nazorat uchun maxsus "iz qoldirish talabi"ni joriy etish. Har bir muhim daromad yoki xarajat yozuvi kamida bitta birlamchi hujjat, bitta tasdiqlovchi ichki yozuv va bitta elektron iz bilan bog'langan bo'lishi kerak.
- 6) reklamaga, konsaltingga, IT va undirishga doir xarajatlar bo'yicha kontragentlarni qo'shimcha tekshirish tartibini belgilash maqsadga muvofiq. Ayniqsa, bog'liq tomonlar bilan operatsiyalar, umumiy tavsifli aktlar va bozor narxidan sezilarli og'ishlar alohida ekspertiza qilinishi lozim.
- 7) noto'g'ri aks ettirish va soxtalashtirishni farqlash bo'yicha ichki metodik qo'llanma ishlab chiqish. Chunki ayrim xatolar qasddan emas, metodik noaniqlik yoki ichki hujjatlar yetarli emasligi sababli yuzaga kelishi mumkin. Shu bois tekshiruv yakunida har bir holatning tabiati to'g'ri baholanishi zarur.

Umuman olganda, mikromoliya tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar hisobi bo'yicha buzilishlarni aniqlash tizimi kuchaytirilsa, bu nafaqat moliyaviy hisobot sifati, balki bozor ishonchi, iste'molchilar bilan munosabatlar va ichki boshqaruv sifati uchun ham ijobiy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli aniqlash usullarini auditning tor texnik protsedurasi sifatida emas, balki tashkilotning moliyaviy xavfsizlik arxitekturasi sifatida shakllantirish lozim.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida. O'RQ-765, 2022-yil 20-aprel.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qarori. Nobank kredit tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida, 2020-yil 27-iyun, 15/9-son, ro'yxat raqami 3263.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qarori. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish to'g'risidagi nizom, 2023-yil 11-yanvar, ro'yxat raqami 3412.
4. Брызгалов Д.В. Особенности и проблемы перехода микрофинансовых организаций на единый план счетов и отраслевые стандарты бухгалтерского учета // Экономика. Налоги. Право. 2017. № 2. – С. 84-90
5. Бурлов Д.Ю., Одоева О.И., Гомбоева А.Н. Кредитование проектов малого бизнеса через государственные микрофинансовые организации // Вестник Бурятского государственного университета. Экономика и менеджмент. 2024. № 3. – С. 3-11.

6. Вергазова А.Т. Классификация недобросовестных практик со стороны микрофинансовых организаций в Российской Федерации // Социально-политические науки. 2022. Т. 12. № 5. – С. 64-70.
7. Вергазова А.Т. Недобросовестные практики со стороны микрофинансовых организаций: автоматизированный контент-анализ клиентских историй // Социально-политические науки. 2022. Т. 12. № 6. – С. 83-87.
8. Ветлугин Д.Д., Федоров А.В. Тенденции и перспективы развития рынка микрофинансирования в Российской Федерации // Исследование инновационного потенциала общества и формирование направлений его стратегического развития: сборник научных статей 10-й Всероссийской научно-практической конференции с международным участием. Курск, 30 декабря 2020 г. Курск: Юго-Западный государственный университет, 2020. Т. 1. – С. 101-107.
9. Воронов С.С., Голубятников С.П. Типичные способы преступлений экономической направленности, совершаемых в результате незаконной деятельности микрофинансовых организаций // Вестник Нижегородской академии МВД России. 2018. № 3 (43). – С. 141-146.
10. Гусева Е.Н. Использование показателей бухгалтерского баланса в оценке финансового состояния ломбарда // Инновационного развития и использования: сборник научных трудов. Вып. 5. Кемерово: Кемеровский государственный университет, 2016. – С. 180-184.
11. Крикун Е.С. Актуальные вопросы характеристики результатов деятельности предприятий микрофинансовой сферы // Известия Иркутской государственной экономической академии (Байкальский государственный университет экономики и права). 2015. Т. 6. № 1. – С. 39-46
12. Полякова В.В. Микрозаймы и микрофинансирование - проблемы и перспективы в России // Вестник университета. 2012. № 10. С. 245-246.
13. Пышкин А.Н. Сценарный прогноз развития системы государственных микрофинансовых организаций до 2030 года // Проблемы прогнозирования. 2024. № 3 (204). – С. 151-163.
14. Рахимов А.А., Хасанов Б.А. Принципы и формы организации внутреннего аудита в микрокредитных организациях Узбекистана // European science. 2016. № 10 (20). – С. 14-19
15. Сыдыкова Ч.К., Абдылдаева У.М., Сыдыкова А.К. Формирование системы внутреннего контроля кредитных операций в микрокредитных организациях // Economics. 2019. № 2 (40). – С. 57-62.
16. Цветков В.А., Дудин М.Н., Сайфиева С.Н. Проблемы и перспективы развития микрофинансовых организаций в Российской Федерации // Финансы: теория и практика. 2019. Т. 23. № 3 (111). – С. 96-111.
17. Цыбакова К.Р. Опыт становления микрофинансирования и его развитие в современном мире // Экономика и социум. 2018. № 1 (44). – С. 895-897
18. Чернов К.Ю., Леонова В.Ю., Зиминова А.О. Проблемы и перспективы аудита микрофинансовых организаций // Публично-правовые (государственно-правовые) науки. Eromen. Global. 2025. – С. 148-153